

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLAR ORQALI DARSLARNI SAMARALI VA MAZMUNLI OLIB BORISH

Ne’matova Nargiza Normurod qizi
Buxoro shahar 35-maktab o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sinf darslarida bolalarga darslarni qiziqarli metodlar yordamida o‘tishning samaradorligi haqida gap yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Metod, interfaol, samarali, mazmunli, vositalar, hamkorlik, oqituvchi, kompyuter, o‘quvchi, tarbiya, vosita.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится об эффективности обучения детей с использованием интересных методов на уроках.

Ключевые слова: Метод, интерактивный, эффективный, содержательный, инструменты, сотрудничество, учитель, компьютер, ученик, образование, инструмент.

Ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, ushbu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma’lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilim va ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi. O‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar dars paytida hamkorligi, o‘quvchining mustaqil ishlashi sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalarini anglatadi.

Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishta shakllanadi. Shunday ekan ta’lim va tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri , aniq , o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarni hosil qilish mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish kommunikativ savodxonlikni oshirish, shaxsiy ma’naviyatni boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limning maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash o‘g‘izaki va yozma savodxonligini oshirish mantiqiy tafakkurni rivijlantirish orqali muloqot madaniyati takomillashadi

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi oshib bormoqda. O‘quvchilarda interfaol metodlar va kompyuter vositalarini qo‘llashga bo‘lgan extiyoj kundan- kunga oshib bormoqda. Bunday extiyojlarning

sabablari biri shu paytgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatillgan bo'lsa, hozirda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zлari mustaqil qidirib topishga, mustaqil fikrlashga, o'rganishga, tahlil qilishga, hattoki yakuniy xulosani ham o'zлari chiqarishga majbur qilyapti.

Interfaol metod deganda – ta'lim oluvchini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Interfaol metod biror bir faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, baxs – munozarada fikrlash asosida birgalikda hal etishidir. Bu usularning afzalligi shundaki butun faoliyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarning tashabbuskorligi hamda jamoaviy izlanuvchanligi oshadi. Interfaol metodlardan foydalanib darslar tashkil etilsa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlari yanada oshadi va ta'lim sifadi yaxshi tarafga o'zgaradi.

Darslarda foydalaniladigan interfaol metodlar orqali tashkillashtirilgan darslar qiziqarli ham mazmunli o'tishi mumkin. CHunki biz bilamizki boshlang'ich sinf o'quvchilari juda qizuquvchjan va o'yinqaro bo'lishadi. Shuning uchun ham darslada rang barang metodlar tashkil qilish maqsadga muvofiq. Masalan: o'quvchilar ko'paytirish jadvalini osonlik bilan tushinib olishmaydi, agarda ularga interfaol metodlar orqali tushuntirsak ularning xotirasiga qoladi va tushinishi uni ongli ravishda anglashi osonlashadi.

Darslarda bolalarning faolligini oshiradigan vosita bu interfaol metodlardir. Bu maktab pedagoglarin uchun yangilik emas. Bularidan oldin xam foydalanib kelishgan. Lekin bu metodlar qachon samara bera oladi.

- Dars va maqsad to'g'ri tanlanganda
- Mavzuga mos metod tanlay olsa
- Bir metod bir daes davomida emas balki kam vaqtida qamrab olsa
- Tanlangan metod o'quvchilarga yangi ma'lumotni yetkazib bersa, va mavzuda nima haqida gap borayotgani haqida anglata olishi kerak .

AQLIY HUJM METODI – Doskada ko'rgazma osilgan va u ko'rgazmada tabiat rasmi aks ettirilgan. Ko'rgamaning ikki tomonida quyonlar yopishtirilgan v a ular orasidagi yo'lakda misollar yashiringan. Bu quyonlar do'stlar ularni bir birlarini oldlariga kelishlari uchun yordam berishimiz kerak. Agarda bir birma bir misollarni tog'ri javob orqali yechsak ular bir birlariga yetishib olishadi.

Bu metod bolalarni bir jamoa bo'lib ishlashga inoqlikka chorlaydi. Bu metodni 1-sinf o'quvchilariga qo'llaganimizda yaxshi samara bera oladi.

SINGAN TUXUM METODI – Bu metodda bir butun tuxum listga chiziladi va bo‘yaladi va ikkiga bo‘linadi. Bunday tuxumlarda 7, 8 ta taxlab olishimiz kerak. Misol uchun matematika darslariga tepasiga misolarni yozib pastiga javoblarni yozsak bo‘ladi. Ona tili darslariga esa tepasiga ot so‘z turkumini yozsan pastiga esa unga keluvchi so‘zlarni yozsak bo‘ladi. Keyin bularni aralashtirib bolalarga 2 donadan berib chiqamiz va bolalar birin ketinlik bilan tuxum bo‘laklaridagi so‘zlarni o‘qib bir – biriga tog‘ri keladiganini topib tuxumni birlashtirib ketishadi.

Xulosa shundagi singan tuxum birlashadi va savollar mantiqiy savollar va javoblar birlashadi va mavzu bo‘yicha bilimlar mustahkamlanadi. Bolalarning fikrlash darajasi yaxshilanadi va mavzu sedan chiqmaydigan darajada qiziqarli bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Tolipov U.K, SHaripov SH.S , O‘qituvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogic asoslari.
2. Yo‘ldashev J.G, USMONOV S.A , Zamonaviy pedagogic texnologiyalarni amaliyotda joriy etish – T,Fan, 2012
3. www.ziyo.uz
4. R.Qosimova , Boshlang‘ich sinf imlo qiyin so‘z o‘rgatish T,1964.